

## O‘ZBEK JADID SHE’RIYATIDA PARI OBRAZINING YANGICHA TASVIRI

**Sevinchoy Yoqubova,***Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti v.b.,  
filologiya fanlari fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD)***ORCID ID:** 0009-0004-8104-3252

**Abstrakt.** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligidagi dolzarb masalalardan biri badiiy obrazning jadid she‘riyatida qo‘llanilishi, badiiy-estetik vazifalari tahlil etilgan. Unda xalq og‘zaki ijodida keng qo‘llanilgan pari obrazi tadqiq etilib, jaded shoirlari ijodida mazkur obrazga yangi ma‘no va mazmun yuklanganligi yoritib berilgan. Bu esa maqola muallifiga jadid she‘riyatining dunyoviy va ijtimoiy mohiyatini chuqurroq anglash va tushunishga imkon yaratgan.

Maqolada jaded shoirlari she‘rlari misolida pari obrazining XX asr boshlari o‘zbek she‘riyatidagi talqinlari o‘rganilgan va muayyan xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so‘zlar:** She‘riy asar, adabiy janr, tuyg‘u va kechinma, lirik qahramon, badiiylik, tasvir, ifoda, obrazlilik, o‘ziga xoslik.

**Abstract.** This article analyzes one of the pressing issues in Uzbek literary studies, the use of the artistic image in Jadid poetry, its artistic and aesthetic functions. It studies the image of the fairy, which is widely used in folk oral art, and highlights the fact that this image was given a new meaning and content in the work of Jadid poets. This allowed the author of the article to understand and comprehend the secular and social essence of Jadid poetry more deeply. The article studies the interpretations of the image of the fairy in Uzbek poetry of the early 20th century using the poems of Jadid poets and draws certain conclusions.

**Keywords:** Poetic work, literary genre, feeling and experience, lyrical hero, artistry, image, expression, imagery, originality.

**Аннотация.** В данной статье анализируется один из актуальных вопросов узбекского литературоведения – использование художественного образа в джадидской поэзии, его художественно-эстетические функции. Изучается образ феи, широко используемый в народном устном искусстве, и подчеркивается тот факт, что этот образ обрел новое значение и содержание в творчестве джадидских поэтов. Это позволило автору статьи глубже понять светскую и социальную сущность джадидской поэзии. В статье изучаются интерпретации образа феи в узбекской поэзии начала XX века на примере стихов джадидских поэтов и делаются определенные выводы.

**Ключевые слова:** Поэтическое произведение, литературный жанр, чувство и опыт, лирический герой, художественность, образ, выражение, образность, оригинальность.

**Kirish.** Sharq xalqlari og‘zaki ijodidagi an‘naviy obrazlardan biri pari bo‘lib, uning paydo bo‘lishi, o‘zbek she‘riyatiga kirib kelishi, bevosita xalq mifologiyasi bilan bog‘lanadi. Xalqona tasavvurlarga ko‘ra parilarning xilma-xil turlari mavjud va ular muayyan vazifalarni bajaradi.

Shomonistik tasavvurlarda ko‘ra parilar Ko‘hi Qof yoki Bog‘i Eramda maskan tutib, insonga va inson unga oshiq bo‘lishi tabiiy hol sanaladi [Haqqulov I. 173]. Tasavvurlarga ko‘ra parilar boqiy yashaydi, ular insondan o‘ch olishi, san‘atni sevishi, ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi, ba‘zan insonga shikast yetkazishi va aqldan ozdirishi mumkin.

Rus folklorshunosi A.Afanasyev qadimgi slavyan xalqlarida tabiat hodisalari (yomg‘ir, shamol)ning homiylari pari yoki suv parilari ekanligini ta‘kidlaydi [Afanasyev A. 150].

“ Avesto ”dagi “ payrika ” – mifologik personaj nomi bo‘lib, genetik jihatdan pari obrazining arxaik ko‘rinishi ekanligi mutaxassislar tomonidan e‘tirof etilgan... A. E. Bertelsning fikricha, “pari” so‘zining o‘zagi hind – yevropa bobo tilidagi “ pery ” leksemasi bo‘lib, bu so‘z zardushtiylikdan burungi mifologiyada go‘zallik va muhabbat ilohasining atoqli oti hisoblangan [Jumanov E. 12].

O‘zbek mumtoz she‘riyatida esa pari obrazi mashuqa go‘zalligining ideallashtirilgan tasvirini ifodallashda qo‘llanilgan. Bu obrazning o‘zbek adabiyoti tarixiga kirib kelishi, she‘riyatdagi badiiy-estetik vazifalari tadqiqotlarda muayyan darajada o‘rganilgan [Matyoqubova T. 23].

Ogahiy g‘azallarida xalq og‘zaki ijodida tasvirlangan suv parisi obrazini uchramiz:

Xo‘bluq avjiga chiqq‘on quyosh oso ko‘bdur,

Rutbada o‘xshatg‘uvsidur pari ummona sango. [Ogahiy 56].

Shoir go‘zal yorning yuksak darajadagi martabasiga tabiatdan qiyos izlar ekan, uni yorqin va nurafshon quyoshga, shu nurda jilvalanuvchi dengiz-u okean suvlariga, suv parisiga qiyoslaydi.

Tadqiqotchi D.Nazarova Huvaydo she‘riyatidagi pari bilan bog‘liq she‘rlarni o‘rganar ekan, bunday o‘rinlarda shoir ma‘shuqaga “Ey pari”, “ Ul pari”, “Bir pari” deb murojaat qiluvchi baytlar ko‘pchilikni tashkil etishini aytadi va fikri tasdig‘i uchun quyidagi misolni keltiradi:

Tushdi ko‘nglim ichra darding telbalardek, ey pari,

Kulli olamdin kechib, begona bo‘ldim oqibat [Nazarova D. 128].

**Adabiyotlar sharhi.** O‘zbek adabiyotshunosligida XX asr boshlaridayoq jadid adabiyotiga mumtoz poetik an‘analarning ta‘siri masalasini o‘rganishga kirishilgan bo‘lsa-da, kommunistik mafkura ta‘sirida 30-yillardan e‘tiboran jadidlar ijodiy merosini tadqiq qilish man etilgani sababli bu jarayon muayyan muddat to‘xtab qolgan edi. Biroq XX asrning 60-80-yillarida ayrim izlanishlar amalga oshirila boshlagani kuzatiladi. Masalan: H.Yoqubov, E.Karimov, B.Qosimov, A.Aliyev va tojik olimi X.Mirzozoda ilmiy tadqiqotlari bu jihatdan diqqatga sazovordir. Afsuski, bunday xayrli intilishlar yo‘li to‘siq qo‘yilgan edi.

XX asrning 80-yillari oxiri va mustaqillik davrida, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov, B.Qosimov, B.Nazarov, B.Do‘stqorayev, Sh.Turdiyev kabi adabiyotshunoslar jadid ijodkorlari shaxsiyati va adabiy merosini xolis ilmiy baholash, bu adabiyotning taraqqiyot tamoyillarini milliy istiqlol mafkurasi asosida o‘rganish yuzasidan salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. H.Boltaboyev, Sh.Rizayev, I.G‘aniyev, D.Quronov, Z.Abdurashidov, N.Afoqova, Z.Mirzayeva, M.Tojiboyeva, R.Sharipov va Sh.Hojiyeva ishlarida jadid adabiyotshunosligi, jadid dramasi va nasri poetikasi, ma‘rifat talqini, she‘riyatdagi ramzlar va shakliy yangilanishlar, ijtimoiy voqelik ifodasi, jadid adabiyotining xorijda o‘rganilishi, alohida ijodkorlar lirik merosi kabi ilmiy-nazariy muammolar tahlil qilindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola mavzusini yoritishda kontekstual tahlilning sotsiologik, tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik yondashuvlaridan foydalanildi.

**Natijalar.** XX asr 20-yillariga kelib real hayotga yaqinlashgan badiiy adabiyot millatning ruhini uygʻotishga qaratilgan edi. Jadid shoirlari yangi mavzularni yangi janrlarda, yangicha obrazlar orqali tasvirlashga harakat qildilar. Mavjud anʼanaviy obrazlarni ham oʻz maʼnosida emas, balki oʻziga xos yangicha tarzda qoʻllay boshladilar. Jadid shoirlari ijod namunalarida qalamga olingan anʼanaviy obrazlar bilan bogʻliq holda shaxs va millat erki, xalqni uygʻotish, adolat singari ijtimoiy masalalar koʻzda tutilgan. Jumladan, Choʻlpon “Ket” sheʼrida shunday yozadi:

Ket, ey toʻqqiz pari, goʻzal qora qush,

Yiqin boʻlgan koʻkragimdan, chetda uch.

Ket, sevgimning ulugʻ yovi, koʻrinma,

Laʼnat sochib yonlarimda yurinma [Choʻlpon, 46].

Choʻlpon jahon adabiyotining zukko bilimdoni va tarjimoni edi. Shuning uchun Choʻlponning ijod namunalarida jahon adabiyoti bilan bogʻliq fikr-mulohazalar ham kuzatiladi. Ushbu sheʼrida shoir fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo (1802 – 1885) ning “Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi” (1831) tarixiy romani voqealariga ishora qiladi. Roman voqealari oʻrta asrda boʻlib oʻtadi, asarda qoʻngʻiroqxona tomidan turib, oʻz mahubasi boʻlgan loʻli qizni kuzatgan Kvazimodaning fojeali muhabbati tasvirlanadi. Bizningcha, “toʻqqiz pari” deyilganida Parijning Site orolidagi fransuz gotikasiga xos meʼmoriy yodgorlik boʻlgan ushbu ibodatxona bosh tarxidagi haykallar nazarda tutilgan. Chunki Bibi Maryam ibodatxonasi Parijdagi ilk xristianlar cherkovi – Avliyo Stefan oʻrnida joylashgan boʻlib, qadimgi rimliklar xudosi Yupiter cherkovi poydevori asosiga qurilgan edi. Rivoyatlarga koʻra, aql bovar qilmas darajadagi mahobatli ushbu cherkov qurilishiga Iblis ham oʻz hissasini qoʻshgan ekan.

Choʻlpon Iblis aralashgan ish xayrli emasligiga eʼtibor qaratadi. Begona madaniyat sigʻinish obektlari boʻlmish zohiran goʻzal, ammo aldamchi sanam (but)lar – yangilik tarafdorlari daʼvosi bilan chiqqan, azaliy qadriyatlarni ayovsiz toptagan, qirgʻin – qatagʻonlar uyushtirgan “yangi doʻstlar”, yaʼni shoʻrolarning adabiy-mafkuraviy yolgʻonlariga ishonishni istamaydi. Chunki bu yoʻlda najot yoʻqligini teran angʻlaydi. Joni qiynoqlar ichida qolsa-da koʻngli aldanmaydi:

Ket, malaklar dostonini oʻqima,

Ket, aslsiz ertaklarni toʻqima.

Ket, sevgili koʻkragimga tinchlik ber,

Ket, sening-chun quchoq ochgan qora yer.

Ket, jonimni qiynagʻuvchi jodu – hur,

Ket, koʻnglimni aldaguvchi yolgʻon nur [Choʻlpon, 46].

Bu fikrlarning real hayotiy asoslari, psixobiografik mohiyati shundaki, Cho'lpon hayotda o'zicha yo'l qidirib, qaysi yo'ldan borish masalasida ba'zan ikkilanadi. Ammo, "ulug' yov"ga zinhor aldanmaydi. Bu hol shoirning ilk umid nishonasi bo'lgan Turkiston Muxtoriyatining 1918-yil fevralda shavqatsizlarcha tugatilishi, so'nggi umidi bo'lmish 1920-yilda yuzaga kelgan Buxoro Xalq Respublikasining taqdiri ham xavf ostida ekanini anglashi, ruhan his etishi bilan bog'liq. She'r shoirning 1922- yilgi kayfiyat-holiga to'la mutanosib edi.

Cho'lpon "Suygan choqlarda" she'rida ham pari obraziga murojaat qiladi:

Xayolimning qip-qizildan kiyingan,  
Parilari, hurlarini ko'rdingmi?  
Alamimdan gullar ekkan yo'llarga,  
Koinotdan hayot sohib yurdingmi?

Yo'llaringda "shitir" etsa so'lgan barg,  
Qulog'imga musiqalar keltirur;  
Qachon sening musiqali ovozing,  
Sening meni "suyganingni" bildirur?... [Cho'lpon, 13].

Shoir yorni go'zallarning malikasi, samoviy chiroyga ega qiyofada tasvirlaydi. Mashuqa qadam tashlagan yo'llardagi so'lgan bargning shitirlashi ham oshiqqa musiqaday eshitiladi. Zotan, shoirning lirik qahramoni – umidvor va vijdoni pok oshiq. U so'nggi umidlariga osilib, yiqilish holiga kelgan kezlarida ham, o'zidagi Vatan ishqining asl mash'ali – ilohiy qudratidan, ko'ngil tilaklaridan kuch oladi.

O'ziga xos ohang va musiqaga ega bo'lgan Cho'lponning ijodida "pari" obrazidan ko'pgina o'rinlarda foydalanilganini kuzatishimiz mumkin. Shoirning ko'pgina lirik she'rlari kuyga solib, qo'shiq qilingan. Ulardan eng ommalashgani "Uyqu" nomli she'ri hisoblanadi:

Jim turing, shovqinlanmang, uyqu ichinda ul pari,  
Yurma, tek tur, ay shamol, yursangda yur bir oz nari.

Ko'kda bir to'p qiz – malak uyqu kuyini boshladi,  
Ilgari chalgan tirik, jonli kuyini tashladi [Cho'lpon, 136].

Jadid shoirlari she'riyatida tasvirlangan narsalar, hatto muhabbat haqidagi fikrlar ham ijtimoiy ma'no tashishga xizmat qiladi. Chunki, millat taqdirini har nedan ustun qo'ygan jadid ma'rifatparvarlarining shaxsiyati bilan erk va ozodlik haqidagi g'oyalari uyg'unlashib ketgan. Uzoq asrlar davomida ishq va go'zallik bilan bog'liq qarashlarni ifodalab kelgan pari obrazi ham bu singari she'rlarda erk, ozodlik mavzusini yoritishga yo'naltirilgan.

Fitratning "Yana yondim" she'rida ham pari obrazi tilga olinadi:

Jon tortg'usi bo'lgan ko'zi og'ir, nozli suzilardi,

Bir oz burun chog'ir ichkan parilarg'a o'xshardi.

Bilmam nechun o'ylardi...!

Ka'ba uzra aylang'uvchi ko'garchindek yuragim,

Soatlarcha shu ko'zlarning tegrasida aylandi [Fitrat, 46].

Fitratning ushbu she'ri tag zamirida ham ijtimoiy mohiyat mavjud. Yurtning ertasidan tashvishga tushgan lirik qahramon o'zini yuragida qalin, qizg'in olov yonyotgandek, chidamli umid teraklari yiqilgandek, uzoq davom etgan qayg'u tunidan so'ng tong otmaydigandek, butun borlig'ini yemirilganday tushkun holda his qiladi. Bir zamonlar manglayida nur dengizi jilvalanib turgan go'zal umid to'lqinlari u bilan hamnafas edi. Endilikda esa Ka'ba atrofini aylanyotgan kabutardek parvona bo'lsa-da, unga sira boqmayapdi. Umidsizlik aro joni o'rtanib, cheksiz iztirob cheksada, yuragining tub – tubida umidning qaytishini istaydi. Ruh nechog'lik yaralanmasin umidsiz yashay olmaydi. Bunda pari obrazi shoir ilgari surgan tuyg'u-kechinmani ta'sirchan ifoda etishga xizmat qilgan.

**Xulosa.** O'zbek jadid shoirlari folklor va mumtoz adabiyotga xos shakl, ohang va obrazlardan ijodiy foydalanib, XX asr milliy she'riyatiga yangicha shakl, uslub, ijtimoiy-ma'rifiy, madaniy-siyosiy ruh va uyg'onishga chorlovchi da'vatkor ohanglarni olib kirdilar. An'anaviy obraz va timsollarni shaxs va millat erki, xalqni g'aflatdan uyg'otish, adolat va haqiqat uchun kurash singari o'tkir ijtimoiy masalalar ifodasi hisobiga mazmunan boyitdilar.

Folklor va mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan pari obrazi jadid she'riyatida yangicha mazmun va mohiyat kasb etgan. Bu davr she'riyatida pari obrazi erk, ozodlik, millat va vatan kelajagi uchun qayg'urish singari tuyg'u-kechinmalar tasvirida keng qo'llanilgan. Pari obrazi ijodkor adabiy-estetik maqsadi va zamonaning milliy talab-ehhtiyojlaridan kelib chiqib, an'anaviy ma'nosidan qisman uzoqlashib yangicha mazmun tashigan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Афанасьев А. Поэтические воззрения славян на природу.Т.3. - М.:Изд.К.Солдатенкова, 1969, с. 150.
2. Жуманов Э. Эртактлардаги дев, пари, илон, ялмоғиз образларининг мифологик асоси Жаҳон адабиёти , Т. , 2022 , 1-сон
3. Матёкубова Т. Поэтик идрок ва маҳорат, Тошкент, 2010, Б . 28
4. Назарова Д. Ҳувайдо шеъриятида анъанавий образлар ; Академик А.Қаюмовнинг илмий-ижодий мероси мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани , Т. : 2021 , Б . 128
5. Огаҳий. Асарлар. У1 жилдлик. Ж.1. Девон. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1971
6. Фитрат. Танланган асарлар. Ж.1. – Т.: Маънавият, 2000
7. Чўлпон , Асарлар 1- жилд. – Т. : Академнашр, 2016
8. Ҳаққулов И. Занжирбанд шер қошида. – Т.: Юлдузча, 1989
9. Matyokubova T. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. – Pp. 120-122
10. Matyokubova T. G 'afur G 'ulom she'riyatining poetik jozibasi (Shoirning "Kuzatish" va "Sog'inish" she'rlari tahlili misolida) // Uzbekistan: yazyk i kultura . 2024. № 2. – B. 88-98

11. Yakubov I. Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. – Pp. 123-126
12. Yoqubov I. Erkin A'zamning "Zabarjad" kinoqissasida qahramon botinidagi evrilishlar tasviri // Uzbekistan: yozuk i kultura . 2024. № 2. – B. 66-77
13. Yokubova S.I. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri // O'zbekiston:til va madaniyat. – Toshkent, 2022, № 3. – B. 42-54.
14. Yokubova S.I. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2023, № 3. – B. 79-90.

